

DUNYO IQTISODIYOTIGA GLOBAL MUAMMOLARNING TA'SIRI: XAVFMI YOKI YANGI IMKONIYAT?**Xasanov Ne'matillo Farxodjon o'g'li**

“Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya” universitetining “Xalqaro iqtisodiyot va menejment” fakulteti 0-9a-24 guruhi talabasi.

E-mail: onlyxasanov06@gmail.com

Mamajonov Firdavs Xurshid o'g'li

“Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya” universitetining “Xalqaro iqtisodiyot va menejment” fakulteti 0-9a-24 guruhi talabasi.

E-mail: mmdjnvxrshdvch@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15664428>

Annotatsiya. Hozirgi paytda butun dunyo ikkita bir-biriga zid bo'lgan yo'nalish orasida asta rivojlanib bormoqda. Bulardan biri, dunyo taraqqiyoti uchun zararli va u uchun ofat keltiruvchi iqlim o'zgarishi, terrorizm va siyosiy urush kabi global muammolardir. Ikkinchisi esa, bu muammolarni bartaraf etish uchun yaratilayotgan yangi texnologiya va yashil biznes kabi yangi loyihalar hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi global muammolarning davlatlar iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganish va davlatlar bu muammolarni qanday yengib o'tayotgani, samarali usullarni dunyo miqyosida tatbiq qilish oqibatlarini o'rganish, bu muammolarning iqtisodiyotdagi va davlatlar hayotidagi ijobiy o'rnini o'rganish asosiy yo'nalish qilib olingan.

Kalit so'zlar: Global muammolar, iqlim o'zgarishi, diniy ekstremizm va terrorizm, siyosiy urushlar.

Abstract. Currently, the whole world is slowly developing between two conflicting directions. One of them is global problems such as climate change, terrorism and political war, which are harmful to the development of the world and cause disaster for it. The second is new projects such as new technology and green business that are being created to overcome these problems.

The purpose of this article is to study the impact of global problems on the economy of countries and how countries overcome these problems, to study the consequences of the implementation of effective methods on a global scale, and to study the positive role of these problems in the economy and the life of countries.

Key words: Global problems, climate change, religious extremism and terrorism, political wars.

Аннотация. В настоящее время весь мир медленно развивается между двумя противоречивыми направлениями. Одним из них являются глобальные проблемы, такие как изменение климата, терроризм и политическая война, которые наносят вред развитию мира и вызывают для него катастрофу. Второе это новые проекты, такие как новые технологии и зеленый бизнес, которые создаются для преодоления этих проблем.

Цель данной статьи - изучить влияние глобальных проблем на экономику стран и то, как страны преодолевают эти проблемы, изучить последствия внедрения эффективных методов в глобальном масштабе, а также изучить положительную роль этих проблем в экономике и жизни стран.

Ключевые слова: Глобальные проблемы, изменение климата, религиозный экстремизм и терроризм, политические войны.

Kirish

Globallashuv sharoitida dunyo kundan-kunga murakkablashib, turli xil global muammolar bilan yuzlashmoqda va bu ofatlar insoniyat hayotining barcha jabhalariga, xususan, iqtisodiyotga ham ijobiy ham salbiy tomondan o'zining chuqur ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda insoniyat olamida iqlim o'zgarishi, pandemiyalar, qurg'oqchilik, siyosiy urushlar va terroristik harakatlar kabi global muammolar xalqaro savdo, investitsiyalar va ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita ta'sir qilmoqda. Ayrim hollarda, bu omillar iqtisodiy inqirozlarga sabab bo'lsa, ba'zan esa yangi imkoniyatlar yaratib, innovatsiyalar va yangi biznes modellarning rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 300 milliard dollardan ziyodroq zarar keltirgan tabiiy ofatlar ijobiy yo'nalishda ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni ofatlarni bartaraf etish uchun sarflangan 1.7 trillion dollar natijasida 10 million ishchi kuchi ish bilan ta'minlandi. Ushbu maqola statistik ma'lumotlarni tahlil qilgan holda global muammolarning jahon iqtisodiyotiga salbiy tasiri bilan bir qatorda u keltirib chiqargan ijobiy g'oyalarni o'rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bu mavzuning jahon miqyosida ekanligi uning nomidan (global) bilinib turibdi va ko'plab olimlar bu mavzuga aloqador yo'nalishlarda izlanishlar olib borishgan. Bulardan aniq faktlarga asoslanganlari, IRENA (2023) "World Energy Transitions Outlook" tadqiqotlari dunyo miqyosida iqlim o'zgarishi darajasi hamda bu muammo natijasida rivojlanayotgan qayta tiklanuvchi energiyaning ortishi haqida tadqiqotlar olib boradi va quyosh energiyasi potensialiga alohida e'tibor beradi. Axios maqolasi (2024)da esa iqlim o'zgarishi oqibatida atrof-muhit qanchalik ifloslanayotganini o'lchash bo'yicha NASA ma'lumotlari yoritiladi. Va so'nggi yillarda ko'rsatkichlar rekord darajaga yetayotgani ko'rsatiladi.

Terroristik harakatlar iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilib, investitsiyalar kamayishiga sabab bo'ladi. Abadie va Gardeazabal (2003) tadqiqotlariga ko'ra, terrorizm bo'yicha yuqori xavf mavjud davlatlarda iqtisodiy o'sish sustlashadi. Bundan tashqari, iqtisodiy resurslar xavfsizlik choralariga yo'naltirilgani sababli ta'lim va infratuzilma rivojiga kam mablag' ajratiladi.


Geosiyosiy mojarolar investitsiya oqimlarini to'xtatib, iqtisodiy inqirozlarga sabab bo'ladi. Glick va Taylor (2010) urushlar xalqaro savdoni qisqartirib, inflyatsiyani oshirishini aniqlashgan. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF, 2022) Ukraina urushi energiya narxlarini oshirib, global oziq-ovqat ta'minotiga salbiy ta'sir ko'rsatganini qayd etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada keltirilgan barcha statistik ma'lumotlar Jahon Banki, AQSH federal zaxirasi va NASA tashkilotining ma'lumotlaridan olingan. Hamda, maqola yozishda mavjud ma'lumatlarni qayta ko'rib chiqish va tahlil qilish metodologiyasidan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJA**IQLIM O'ZGARISHI**

So'nggi yarim asrning eng yuqori darajadagi global muammosiga aylanib ulgurgan iqlim o'zgarishi muammosining ta'sirini kundan kunga nafaqat ekologik, balki iqtisodiy tizimlarda ham yaqqol sezish qiyin bo'lmay qoldi. Buni faqatgina muammo sifatida ko'rishni ba'zi olimlar oqlamaydi. Bu mavzuni ikki yo'nalishda, ya'ni uning xavfi va u ilhomlantirgan iqtisodiy imkoniyatlari, ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.



1-Diagramma. Karbon gazlarining har million zarradagi ulushi.

Birinci uning xavfini ko'rsak, ishlab chiqarish va resurslar tanqisligi iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. So'nggi 20 yil ichida havo tarkibidagi CO₂ ning hajmi sezilarli, 377,1 ppm dan 420.33 ppm rekord darajagacha ortgani ma'lum(1-Diagrammaga qarang)¹.

- Birgina Amerikaning o'zida haroratning 1°C ortishi hosildorlikning 4-11% kamayishi, qurg'oqchil davlatlarda esa bu ko'rsatkich 16%gacha yetishi mumkin². Bu o'simliklar hajmidagi qisqarishga asosiy sabab o'simliklarning haroratga chidamsizligi va sug'oradigan suvlarning yetishmasligi natijasida, hasharot va kasalliklarning avj olishi bo'lib qolmoqda.

- Havo harorati ortishi natijasida yuzaga keladigan yana bir muammo GES(gidroelektrostansiya)lar joylashgan hududlarda suv tanqisligini paydo bo'lishi. Bunga misol qilib O'rta Osiya hududidagi Amudaryo suv sathining 2018-2022-yillar davrida 1,5 metr pasaygani natijasida elektr ishlab chiqarish quvvati 120mln KV/soatga qisqarishini keltirish mumkin³.

Boshqa tomondan qaraganda iqlim o'zgarishi har qanday holatda ham baribir yuzaga kelardi. Shuning uchun bu mavzu haqida so'z borganda, u ilhomlantirgan yangi imkoniyatlarni aytib o'tish kerak. Ma'lumki, "Yashil iqtisodiyot"ning rivojlanishining asosiy sababchisi atrof-muhitning ifloslanishi va havo haroratining ortishi hisoblanadi.


¹ Greenhouse gases surged to record levels in 2023.

<https://www.axios.com/2024/10/28/greenhouse-gases-2023-record-high?>

² American Economic Assosiation. <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.101.1.1>

³ Amudaryo va GES. <https://www.globaldamwatch.org/>

2022-yilda qayta tiklanadigan energiya turlari bo'yicha global sarmoya taqsimoti (\$ mlrd)



2-Diagramma. Yashil energiyaning taqsimlanishi.

• Dunyo bo'yicha ko'plab rivojlangan davlatlar ishonadiki, qayta tiklanuvchi energiyalarga sarmoya kiritish kelajakda o'z samarasini beradi. Buni 2024-yilda Xitoy, AQSH, Yevropa ittifoqi mos ravishda 117 milliard, 114 milliard, 93 milliard AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritgani misolida namoyon bo'ladi. Ularning investitsiyalari asosan quyosh energiyasi (308 milliard), shamol energiyasi (174 milliard), gidroenergiya (10 milliard) va bioenergiya (8 milliard) ga yo'naltirilgan va bu yuqoridagii grafikda foizlar nisbatida ham berilgan⁴.

• Bundan tashqari elektromobillar ishlab chiqarilishi ham ekologik ham iqtisodiy jihatdan o'sishga o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. "The International Council on Clean Transportation" ma'lumotiga ko'ra 1 dona elektromobil 2023-yilda yillik 1.5 tonna CO₂ atmosferaga chiqishini oldini olgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilda 2.2 tonnaga batareyalar tozalaydigan energiyaga o'tish orqali erishadi⁵. Elektromobillar nafaqat ekologiya balki iqtisod sohasida ham o'z o'rniga ega bo'ldi. Buni 2021-2023 yillarda 10.5 million xarid amalga oshgani bilan ko'rish mumkin.

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM

Hozirgi zamonda butun dunyoda yirik global muammoga aylanib ulgurgan diniy ekstremistik va terroristik harakatlar nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy hayotga ham katta xavf tug'dirmoqda. Ular halifalik davlatini barpo etish maqsadi yo'lida ko'plab davlatlarda buzg'unchi ishlarni amalga oshirishi natijasida o'sha davlatga yuqori darajada talofatlar yetqazmoqda va bu albatta iqtisodiyotga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Davlatga nisbatan biror bir terroristik guruhning xavfi yoki tahdidi borligi o'sha davlatning chegara va mudofaa xarajatlari o'sishiga va ma'lum miqdorda davlatning iqtisodiy o'sishini rag'batlantiruvchi islohotlar yoki savdo munosabatlarida xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

Davlatning ichida diniy ekstremistik va terroristik guruhlarining mavjudligi sababli tashqi investorlarning ishonchi pasayadi va davlatga kirib keladigan tashqi investitsiya pasayishi natijasida davlatning pul aylanmasi bilan bog'liq muammolar yuzaga kela boshlaydi.

Tadbirkorlarning joniga bo'lgan tahdid xavfi va biznes yuritishdagi risk darajasi ko'tariladi. Bu esa o'z o'rnida biznes sharoitini yomonlashishiga olib keladi. Bu bir necha


⁴How do China and America think about the energy transition?

<https://www.brookings.edu/articles/how-do-china-and-america-think-about-the-energy-transition/>

⁵ The International Council on Clean Transportation. <https://theicct.org/>

misollarda o'z aksini topadi. Masalan, eng yirik va buzg'unchi terroistik guruhlardan biri bo'lgan "Al-Qoida" misolida ko'rish mumkin. Bu guruh 1988-yilda vujudga kelgan va hozirda BMT va dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan terroistik guruh deb rasman e'lon qilingan. Ular shu vaqtgacha bir qancha yirik terroistik harakatlar olib borgan. Xususan, yaxshi tanilgan "11/9" nomli terroistik harakat ham ushbu guruh tomonidan amalga oshirilgan. Bu terrakt 2001-yilning 11-sentabrida AQSHda ro'y bergan. Terrakt a'zolari tomonidan egallangan to'rt samalyot ma'lum binolarga yo'naltirilgan. Bular ichidagi eng daxshatlisi esa Nyu-Yorkdagi "egizak" minoralar bilan to'qnashtirilgan samalyot. Bu terakt AQSH iqtisodiyotiga qay darajada zarar olib keldi? Bu terrakt natijasida 3000 ga yaqin inson halok bo'ldi va bu AQSHga katta miqdorda iqtisodiy zarar keltirdi.^[2] Avvalambor, bu terroistik harakat natijasida samalyot yo'naltirilgan obyektlar, xususan "egizak" minoralar atrofidagi binolar, ko'chalar va metro yo'llari yo'llari yuqori darajada talofat ko'rdi. Bularni qayta tiklash va o'z holatiga qaytarish uchun AQSH 100 milliard dollar pul sarfladi.⁶

Figure 1. Quantified Benefits by Compensation Mechanism



3-Diagramma.

Vafot etgan 2996 nafar inson va undan tashqari minglab jarohatlangan insonlarning sug'urta pullari uchun sug'urta kompaniyalari 38.1 milliard dollar miqdorida to'lashiga to'g'ri keldi(3-Diagramma). Va ya'na asosiy jihat shundaki, bu voqeadan so'ng ko'plab insonlarning havo transportiga bo'lgan ishonchi ancha pasaydi. Natijada AQSHning yirik aviakompaniyalari iqtisodiy zarar bilan yuzlashdi. Havo transporti kompaniyalari 20 milliard dollar zararga kirdi va davlatlar bularni saqlab qolish maqsadida 5 milliard dollar miqdorida bevosita yordam puli va 10 milliard miqdorida kredit ajratdi.

11-sentabr voqealaridan so'ng neft narxlarining oshishi




⁶ Kongress Tadqiqot Xizmati: <https://www.everycrsreport.com/reports/RL31617.html?>

4-Diagramma

Bu voqeadan so'ng neft narxlarini keskin o'sdi. Masalan, 2001-yilning 11-sentabr sanasining o'zida Brent markali neft narxi 5% oshdi. 12-sentabr kuni West Texas Intermediate nefti narxi 10% ga oshib 31 dollarga yetdi(4-Diagrammaga qarang)⁷. Buning natijasida, butun dunyo bo'ylab transport va ishlab chiqarish narxlarini oshishiga olib keldi. Bu shuni ko'rsatadiki, terroristik harakatlar nafaqat, sodir etilgan joyning iqtisodiyoti, balki butun jahon iqtisodiyotiga ta'sir qiladi.

Dunyo bo'ylab sodir etilgan va etilayotgan diniy ekstremistik va terroristik harakatlar jahon davlatlari iqtisodiyotiga yuqori darajadagi talofatlar yetkazgan bo'lsa ham, ayrim ijobiy natijalarga olib keldi. Buning natijasida, davlatlar diniy ekstremistik va terroristik harakatlarga qarshi kurashish va yo'qotish uchun xavfsizlikni mustahkamlashga ko'proq mablag' sarflashi oqibatida, xarbiy mudofaa sanoati rivojlanishiga hamda zamonaviy texnologiya, transport va kibernetika vositalari olib kelinishiga erishildi. Tabiiyki, bu xavfsizlik sohasida yangi ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'ldi. Masalan, 2020-yilda AQShda xavfsizlik texnologiyalari sohasida 1 milliondan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.



5-

Diagramma. AQSHning harbiy xarajatlari(2019-2024).

Hamda AQSHning xarbiy harajatlari yildan yilga ortib bormoqda(5-Diagramma). Diniy ekstremizm va terrorizm nafaqat yangi ish o'rinlari yaratilishiga, balki xalqaro yordam loyihalari va chet eldan keladigan sarmoyalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Afg'onistonga 2001-yildan keyin yordam sifatida ajratilgan sarmoyalar miqdori \$10 milliarddan oshgan.


SIYOSIY URUSHLAR

Bugungi kunning ya'na bir yirik global muammolaridan bo'lgan siyosiy urushlar oqibatida davlatlar ham ijtimoiy ham iqtisodiy jihatdan ulkan talofatlar yetkazmoqda.

Mamlakatlar o'rtasidagi urush davomida ko'plab resurslar sarflanishi natijasida ta'lim, tibbiyot kabi ijtimoiy hayotni ta'minlovchi sohalarida muammolarga olib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda bu albatta iqtisodiy holatga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Mamlakatlar o'rtasidagi urushlar sababli, ularning xalqaro savdodagi eksport va importi qiyinlashadi: transport narxlarini oshadi va tovarni yetkazib berishda uzilishlar ro'y beradi. Tabiiyki, bu eksport qilinadigan mahsulotning narxini oshiradi va o'sha mahsulotni import qiladigan davlatga qimmatroq narxda kirib kelishini anglatadi. Demak, mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy urushlar nafaqat ularning, balki bu jangda ishtirok etmaydigan davlatlarning ham iqtisodiy ahvoriga ta'sir ko'rsatadi. Misol tariqasida Rossiya-Ukraina urushining O'zbekistondagi shakar narxiga ta'sirini ko'rish mumkin. Urush boshlanguncha O'zbekistonda 1 kilogramm shakar narxi 8000 so'mdan 10500 so'mgacha edi.

⁷ Crude Oil Prices: <https://www.macrotrends.net/1369/crude-oil-price-history-chart?>


Lekin, urush boshlangandan so'ng esa O'zbekiston shakarni katta qismini Ukrainadan import qilganligi sababli bu narx 9-14 ming so'mgacha ko'tarildi⁸. Siyosiy urushlar natijasida urushda ishtirok etayotgan davlatlarning ichki iqtisodiyotiga sezilarli talofatlar yetkazadi, mehnat bozori talofat ko'radi: ko'p odamlar ishlarini tashlashi natijasida ishsizlik darajasi ortadi. Ishsizlikning ortishi esa albatta mamlakatning mahsulot ishlab chiqarishi ya'ni yalpi ichki mahsulotining hajmiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Misol tariqasida Rossiya-Ukraina urushigacha va undan keyingi ukrainaning yalpi ichki mahsulot hajmini ko'rish mumkin (6-Diagrammaga qarang).



6-Diagramma. Ukrainaning YaIM hajmi (2019-2024-yillar).

6-diagrammada ko'rsatilishicha Ukrainaning 2021-yildagi YaIM hajmi \$199,77 milliardni tashkil etgan urush boshlangandan so'ng esa ko'p odamlar ishlarini tark etib boshqa davlatlarga ko'chib ketishi natijasida ishsizlik ortdi va buning ortidan ko'plab ishlab chiqaruvchi kompaniya va fabrikalar yopildi. Bu omillar natijasida 2022-yilda Ukraina iqtisodiyoti 28% ga pasaydi va YaIM hajmi \$161,99 milliardgacha tushib ketdi.

Huddi, diniy ekstremizm va terrorizmga bo'lganidek siyosiy urushlar vaqtida ham investorlarning o'sha davlatga nisbatan qo'rquvi paydo bo'ladi, biznes yuritish riski oshishi natijasida mamlakatga kiradigan tashqi investitsiya miqdori kamayadi. Rossiya-Ukraina urushi Rossianing tashqi investitsiyalar miqdoriga sezilarli darajada ta'sir qildi.



7-Diagramma: Rossianing to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalari (2019-2024).

⁸ Qalampir.uz rasmiy sayti.. [O'zbekistonda shakar narxi ko'tarila boshladi](https://qalampir.uz) | [Qalampir.uz](https://qalampir.uz)

7-diagrammada 2019-yilda \$31.97 milliardni tashkil etdi va pandemiya davrida \$9.48 milliardgacha tushib ketdi. Lekin, 2021-yilda iqtisodiy tiklanish ro'y berib \$40.45 milliardni tashkil etdi. 2022-yilda Rossiya Ukrainaga bostirib kirgandan so'ng ko'plab chet el kompaniyalarining chiqib ketishi natijasida tashqi investitsiyalar hajmi -\$39.8 milliardgacha pasaydi. Va bu pasayish davom etgan holda rekord darajaga ya'ni -\$235 milliardgacha tushib ketdi. Bu esa Rossiyada investitsiyalar deyarli to'xtaganini bildiradi.

Siyosiy urushlar odatda katta talofatlarga sabab bo'ladi, biroq ba'zi ijobiy natijalarga erishilganligiga, ham tarixdan ham hozirgi zamondan misollar keltirishi mumkin. Tarixda bo'lgan voqea sifatida Ikkinchi Jahon Urushini ko'rish mumkin. Ushbu urush natijasida fashistik rejim tugatildi va inson huquqlari himoyasi kuchaydi. Urushdan keyin Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etildi va davlatlar o'rtasidagi nizolarni tinchlik yo'l bilan hal qilishga yordam berdi. Jahon urushidan so'ng ko'plab davlatlar mustaqillikga erishdi. Urush davrida foydalanilgan texnologiyalar esa kelajakda zamonaviy kompyuterlar yaratilishiga turtki bo'ldi.

Hozirgi zamon uchun Rossiya-Ukraina urushini misol qilib olish mumkin. Urush boshlangandan keyin Yevropa Ittifoqi davlatlari Rossiya gaziga sanksiyalar qo'ygandan keyin Rossiya eksportni Osiyo davlatlariga yo'naltirdi. Bundan esa Osiyo davlatlari ham Rossiya ham manfaatdor bo'ldi. Qo'shimcha qilganda, 2022-yilda Rossiya neft eksportidan \$330 milliarddan ortiq daromad oldi va bu boshqa yillardagi ko'rsatkichlardan yuqori bo'ldi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, iqlim o'zgarishi, diniy ekstremizm va terrorizm hamda siyosiy urushlar kabi global muammolar jahon iqtisodiyotiga yuqori darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Lekin, bular natijasida yangi imkoniyatlar ochilishi mumkin. Iqlim o'zgarishi muammosi resurslar tanqisligi va hosildorlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqargan bir vaqtda qayta tiklanuvchi elektr manbalariga sarmoya kiritishda va elektromobillar ko'proq ishlab chiqarishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Diniy ekstremistik va terroristik harakatlar davlatga ham iqtisodiy ham ijtimoiy tomondan ulkan zararlar yetqazsa ham xavfsizlik tizimlari rivojlanishga va yangi ish o'rinlari yaralishi kabi ba'zi ijobiy holatlarga sabab bo'ladi. Siyosiy urushlar davlatlarning investitsiya, mehnat bozori va ishlab chiqarish sohalari kabi yirik iqtisodiy ustunlariga zarba beradi. Lekin, bu urushlar yangi texnologiyalar rivojlanishiga, iqtisodiyot uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lishiga va dunyo tartibini ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'la oladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. American Economic Assosiation.
<https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.101.1.1>
2. Amudaryo va GES. <https://www.globaldamwatch.org/>
3. Crude Oil Prices: <https://www.macrotrends.net/1369/crude-oil-price-history-chart?>
4. Dene, M. (2020, July 6). Rising Tides of Terrorism. Foreign Policy Research Institute.
5. Financial Times. (2024, November 29). Record Global Warming Risks Aggravating War and Violence. Financial Times.
6. Global muammolar va imkoniyatlar.txt . <https://www.climate.gov/>
7. Greenhouse gases surged to record levels in 2023.
<https://www.axios.com/2024/10/28/greenhouse-gases-2023-record-high?>
8. IRENA Renewable Energy Finance Report 2023.
<https://www.irena.org/errors/404?item=%2fpublications%2f2023%2fjul%2frenewable-energy-finance-flows-2023&user=extranet%5cAnonymous&site=irena-azure-cd>

9. Kongress Tadqiqot Xizmati. <https://www.everycrsreport.com/reports/RL31617.html?>
10. Middendorp, T., & Bergema, R. (2019, October 10). How Climate Change Fuels Violent Extremism. Clingendael Institute.
11. Qalampir.uz rasmiy sayti.. [O'zbekistonda shakar narxi ko'tarila boshladi | Qalampir.uz](#)
12. The International Council on Clean Transportation. <https://theicct.org/>